

УДК 371.1:007(045)

**SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRUVCHI
TEXNOLOGIYALAR MAZMUNI**

Aslonova Orzigul Pirimovna,
Qarshi davlat universiteti professori

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18219800>

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta'limning ustuvor maqsadi - bolaning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va uning xulq-atvorini korreksiyalash, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida pedagoglarning o'quv faoliyatini tashkil etishi, pedagoglarga qo'yilgan zamonaviy talablarning janubiy koriyaning ta'lim oldiga qo'ygan talablari bilan taqqoslash, pedagoglarning kasbiy va shaxsiy sifatlarining ahamiyati yoritib berilgan. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'qituvchisining samarali faoliyati, uning kasbiy tayyorgarlik sifatlari, mustaqil rivojlanish imkoniyatlari borasida tegishli fikrlar bildirilgan.

Tayanch tushunchalar: kasbiy tayyorgarlik, pedagogik talablar, jamoaviy munosabatlar, xulq-atvor, metodik tayyorgarlik, o'quv-biluv faoliyati.

Аннотация. В статье выделена приоритетность начального образования - развитие личностных качеств ребенка и коррекция его поведения, организация учебной деятельности учителей на их месте в обществе, сравнение современных требований к учителям с требованиями Южной Кореи. , важность профессиональных и личностных качеств учителей. При этом были высказаны соответствующие мнения об эффективной работе учителя начальных классов, его профессионально-тренировочных качествах, возможностях для самостоятельного развития.

Основные понятия: профессиональная подготовка, педагогические требования, командные отношения, поведение, методическая подготовка, учебная деятельность.

Annotation. The article highlights the priority of primary education - the development of a child's personal qualities and correction of his behavior, the organization of educational activities of teachers in their place in society, a comparison of modern requirements for teachers with the requirements of South Korea. , the importance of professional and personal qualities of teachers. At the same time, appropriate opinions were expressed about the effective work of the primary school teacher, his professional training qualities, opportunities for independent development.

Keywords: professional training, pedagogical requirements, team relationships, behavior, methodological training, educational activities.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712 sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida "Mutlaqo yangicha shakl va mazmunga ega bo'lgan Prezident maktablari va ijod maktablari bo'yicha ishlar faol davom ettirilmoqda"ki, ta'lim mazmuniga intensiv va ekstensiv yo'l orqali hamda zamonaviy yondashuvlarni tizimli kiritishning pedagogik shart-sharoitlarini yaratish negizida mazkur vazifani bajarish ko'zda tutilmoqda. Shu sabab har bir o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim oluvchi shaxsining barkamol rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan faoliyatini tashkil etishning variativ modellari hamda vositalari bilan qurollantirish globallashuv jarayonida davlat va jamiyatning muhim

vazifasidir. Mazkur vazifani hal etish rivojlantiruvchi ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshirilishi bugun hech bir pedagoglar uchun sir emas.

Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi Elkonin-Davidov tizimi deb nomlangan yangi ta'lim texnologiyasining asosini tashkil etdi. Mazkur nazariyaga ko'ra, "boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning mazmuni nazariy bilimlar (ularni zamonaviy falsafiy va mantiqiy tushunishda) berish usuli, kichik yoshdagi o'quvchilarning hamkorlikdagi o'quv faoliyatini tashkil etish (birinchi navbatda, o'quv muammolarini hal qilishni tashkil etish) hisoblanib, rivojlantirish mahsuli esa ushbu yosh davrlariga xos bo'lgan asosiy psixologik neoplazmalardir"[3].

L. V. Zankov rivojlantiruvchi ta'limning bir nechta konseptual yo'nalishlarini taklif etadi. "Birinchi, kichik yoshdagi o'quvchilarning vetagenik kuzatishlari, kognitiv-aqliy faoliyati hamda amaliy harakatlarini rivojlantirish". L. V. Zankov taklif etgan yo'nalishlar asosida aytish mumkinki, ushbu didaktik tizim quyidagi asosiy g'oyaga asoslanadi: "agar o'quv jarayoni maktab o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishi uchun eng samarali bo'lsa, u bilimlarni ongli va doimiy o'zlashtirish uchun ham ishonchli asos bo'ladi". Shu bilan birga, L. V. Zankov fikricha, "rivojlantiruvchi ta'limning didaktik tizimi bo'yicha o'qitish quyidagi muhim tamoyillarga asoslanadi:

1. yuqori qiyinchilik darajasida mashq qilish;
2. nazariy bilimlarning yetakchi roli;
3. tez sur'atda oldinga harakat;
4. o'quvchining o'quv jarayonidan xabardorligi;
5. barcha o'quvchilar bilan maqsadli va tizimli ish olib borish" [4].

Rivojlantiruvchi ta'lim tizimida sotsiogenetik psixologiyaga mos ravishda yaratilgan asosiy tushunchani ta'lim muhiti tushunchasi deb hisoblash mumkin. Bunga ko'ra, o'quvchi shaxsining rivojlanishi "ong va faoliyatning turli shakllariga xos bo'lgan ko'p o'lchovli va ko'p qirrali bilimlarni o'zlashtirish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu esa bizga ushbu turdagi maktabning ta'lim jarayonini madaniy, tarixiy, ijtimoiy normalarni o'zlashtirish imkoniyatlari maydoni sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi" [1].

Mamlakatimiz ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar ro'y bermoqda: ta'lim maqsadlari va mazmuni qayta ko'rib chiqilib, modernizatsiya qilinmoqda. Muqobil tipdagi maktab va ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda, rivojlantiruvchi ta'limning turli variativ texnologiyalari takomillashtirilib faoliyatga tatbiq etilmoqda. Maktabning an'anaviy maqsadi zamonaviy bilim tizimini o'zlashtirishdan iborat ekan, rivojlantiruvchi ta'lim esa maktab o'quvchilarini har tomonlama rivojlantirish hamda ularning shaxsiyatini shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Rivojlantiruvchi ta'limning ushbu yo'nalishi bilan o'quvchi o'quv jarayonining sub'ektiga aylanadi, kognitiv faoliyatda faol ishtirok etadi. Chunki, kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitish ustuvor texnologiyalarining

rivojlantiruvchi ta'lim tizimlari o'quvchilarga insonparvarlik-individual yondashuvga asoslangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy boshlang'ich maktabda o'qitish texnologiyasini yangilash bevosita pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga, ularning pedagogik ijodkorligiga, kreativlik kompetensiyasi darajasiga bog'liq. Shu sababli o'qituvchining pedagogik faoliyatga tayyorlash muammosining zamonaviy tadqiqotlari o'qituvchi faoliyatining metodik, psixologik, axloqiy-estetik, kommunikativ, texnologik jihatlarini tahlil qiladi.

Biroq bugungi kunda maktab ta'limining maqsadlari va ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasi o'rtasida tafovutlar mavjud. O'qituvchining rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini o'z faoliyatida joriy etishga tayyorligi va maktab amaliyotchilarining yetarli darajada uslubiy ta'minlanmaganligi, shuningdek, o'qituvchilarning tayyor uslubiy ko'rsatmalar bo'yicha ishlashga bo'lgan moyilligi o'rtasida.

Ta'limdagi diversifikatsiya, iqtisodiyotdagi tub o'zgarishlar, yangi ijtimoiy talablarning paydo bo'lishi kishilik jamiyatining qadriyat yo'nalishlari tizimi to'g'risidagi hukmron g'oyani o'zgartirmoqda va butun ta'lim tizimini tubdan qayta qurish masalasini ko'tarmoqda. Davlat tasarrufidagi maktabdan xususiy maktablarga imkon berishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Bu esa ta'lim maqsadlarini qayta ko'rib chiqish, ta'lim mazmunini o'zgartirish, unitar yagona maktabni rad etish, gumanistik maktabni yaratishga imkon yaratdi.

Ma'lumki, an'anaviy maktabda mavjud o'quv dasturlarining maqsadi o'quvchilar tomonidan fan bilimlari hajmini o'zlashtirish edi. Mavjud dasturlar asosida yaratilgan darsliklar va ulardagi mavzular ana shu maqsadni amalga oshirishga xizmat qildi. Bu jarayonda maktab qat'iy tartibga solindi hamda mazkur sharoitda ma'lum bir yutuqlarga erishildi. Bir qator erishilgan yutuqlar bilan birga taniqli psixologlarning ta'kidlashicha, bu muvaffaqiyatlar sezilarli muammolarni ham keltirib chiqardi. Ta'lim olishning dastlabki bosqichida kichik maktab o'quvchilari nevroz, muammoli vaziyatlar, norozilik hissi, qiziqish va ishtiyoqning yo'qligi bilan ajralib turadi. Chunki o'quvchi faqat doimiy ta'sir (mukofot yoki jazo) obekti bo'lgan ta'lim tizimi uning ijodiy rivojlanishi uchun sharoit yarata olmaydi, psixo-emotsional sohani saqlay olmaydi. Buning o'rniga o'quvchiga e'tibor va mehr, uning tabiiy qobiliyatiga ishonch bildirish, u bilan do'stona hamkorlik, sheriklik hamda birgalikda faoliyat olib borish, hayrihoqlik bilan sug'orilgan maktab, ularda hurmatni tarbiyalovchi insonparvarlik muhitini yaratish, tarixiy- madaniy meros hamda eng yaxshi xorijiy tajribalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa davrning dolzarb talabi hisoblanadi. Bu talab rivojlantiruvchi ta'limga ustuvorlik berilsagina qondiriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim ustuvor yo'nalishlarining o'zgarishi, ilmiy maktabdan o'quvchi shaxsini rivojlantirish va tarbiyalash asosiy maqsadi bo'lgan maktabga o'tish ta'limdan butunlay voz kechishni anglatmaydi, chunki fan doirasida bilim berish o'quvchi rivojlanishining vositalaridan biri sifatida qaraladi.

Zamonaviy boshlang'ich maktabning qadriyat yo'nalishlari bilimning tayyor shakllarini o'zlashtirish va qayta ishlab chiqarish faoliyatidan bilim olish jarayoni bilan bog'liq ish shakllarini faollashtirishga yo'naltirildi. Psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra, ta'limning bunday qayta yo'naltirilishi bilan o'quvchi har tomonlama rivojlanish sub'ektiga aylanadi, faoliyatning jamoaviy taqsimlangan shakllarida, mustaqil bilim olish jarayonida, o'qituvchi bilan birgalikda ishlashda faol qatnashadi va ijodiy qobiliyatlarini yanada aniqroq namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tafakkurning mahsuldor va reproduktiv komponentlarini shakllantirishda oqilona kombinatsiya, dialektik birlik zarur. Ma'lumki, reproduktiv fikrlash kognitiv va amaliy faoliyatda muhim rol o'ynaydi: turli metodlar orqali sifatli berilgan va mustahkamlangan bilimlar samarali bilimlar fondini tashkil qiladi.

Taniqli psixolog Z. I. Kalmikova ta'kidlaganidek, "odatiy maktabda xavotir qo'rquvi tufayli o'quvchi imkoniyatiga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilmaganligi maktab o'quvchilarining zarur bilim fondiga ega bo'lmasligiga olib keladi. Bundan chiqish yo'li esa o'quvchining mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda uning faoliyati xarakterini o'zgartiradigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimida yotadi" [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy maktabning ta'lim tizimini qayta qurish o'quv jarayoni uchun tegishli texnologiyani ishlab chiqish sharti bilan amalga oshirish mumkin. Qurilish jihatidan xilma-xil bo'lgan butun mavjud maktabning poydevori quyidagi imperativlarga asoslanishi kerak:


ta'lim jarayonining yaxlitligi, o'qitish va ta'limning ushbu yaxlitlikning o'zaro ajralmas va bir-birini to'ldiruvchi qismlari sifatida bog'lanishi;

bolalar jamoasiga tayanish, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va o'zini o'zi anglash sharti sifatida;

ta'lim jarayoniga atrof-muhitni kiritish, maktabning u bilan o'zaro munosabatda bo'lish uchun ochiqligi;

bolalarning havaskor faoliyatini, tashabbuskorligi va ijodini rag'batlantirish; ta'lim jarayonidagi majburiy va ixtiyoriy elementlarning kombinatsiyasi"[5].

Bunday vazifalarning birinchi va dastlabki talabi rivojlantiruvchi ta'limni mazkur maqsadlar tizimiga qaratish hisoblanadi. Rivojlantiruvchi ta'limni loyihalash o'z ichiga bir nechta komponentlarni oladi (1- rasm).



1-rasm. Rivojlantiruvchi ta'limning amaliy komponentlari

Birinchi komponent o'quvchi shaxsining o'ziga bo'lgan munosabati bilan bog'liq. Ushbu komponentning mazmuni o'quvchining o'zini o'zi rivojlantirish va takomillashtirish istagi (xususan, o'z-o'zini o'rganish, o'zini o'ziga o'rgatish qobiliyatini egallash). Shu bilan birga, o'quvchi shaxsi o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini o'zgartirish va o'zini o'zi boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'zini o'zi anglashini rivojlantirish, ichki va tashqi to'siqlarni yengib o'tish uchun o'z faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Rivojlantiruvchi ta'limning ikkinchi komponenti o'quvchining boshqalarga munosabati bilan bog'liq. Ushbu komponentning mazmuni har qanday shaxsni munosib axloqiy fazilatlarining tashuvchisi deb bilish istagi, qiyinchiliklarni yengishda boshqa odamni hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlash zarurati, boshqalarga nafaqat hamdardlik bildirish, balki unga amaliy yordam berish istagi boshqalar bilan konstruktiv aloqada bo'lishga undaydi.

Maqsadlar tizimining muhokama qilinayotgan uchinchi komponenti o'quvchining obektiv voqelikka munosabati bilan bog'liq. Mazkur komponent tarkibiy qismining mazmunini, bizningcha, o'quvchi bir vaqtning o'zida turli ijtimoiy jamoalarda turli xil faoliyat turlarida o'z "men"ini saqlab qolgan holda muvofiqlashtira olishi va pirovard natijada ushbu jamoalarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi ayniqsa muhimdir. Eng muhimi, shunday bo'lishi kerakki, amaliy ehtiyoj bo'lsa, yangi ijtimoiy hamjamiyatlarni yaratish va tegishli faoliyatni loyihalashtirishga qodir bo'lishi lozim. Umuman olganda, "...rivojlantiruvchi ta'lim shaxsda o'zi duch keladigan hodisa va jarayonlarni tahlil qilish, tarixiy-madaniy kontekstda bu jarayon va hodisalarning ma'nosini anglash qobiliyatini

shakllantirishi kerak” [2].

Rivojlantiruvchi ta’lim to’rtinchi komponentning mazmuni “bolaning ijodiy qobiliyatlari, uning atrofidagi dunyoni o’zgartirish va yaxshilash, original asarlar yaratish, yangi usullarni kashf etish va qiziqarli muammolarni qo’yish qobiliyatidir” [8].

Akademik L. V. Zankov L. S. Vigotskiyning таълимотиға асосланиб rivojlantiruvchi ta’limning didaktik tizimini таклиф этади. Uning fikricha “rivojlantiruvchi ta’lim:

1. o’rganish rivojlanishdan oldinda bo’lishi lozim;
2. to’g’ri tashkil etilgan mashg’ulotlar bolaning rivojlanishiga olib kelishi kerak;
3. pedagogika bola rivojlanishida uning kelajakini e’tibordan chetda qoldirmasligi shart;
4. mashg’ulotlar odatiy emas, balki “proksimal rivojlanish zonasida” olib borilishi darkor;
5. rivojlantiruvchi ta’lim hamkorlik asosida amalga oshirilishi” maqsadga muvofiq [4].

L. V. Zankov taklif etgan didaktik tizim an’anaviy tizimdan o’quv faoliyatini samaradorligini oshiruvchi ta’lim maqsadlari, ta’lim mazmuni, tamoyillari, usullari, tashkiliy shakllari, subyektlar o’rtasidagi hamkorlik munosabatining tabiati, ta’lim jarayoniga o’ziga xos yondashuv kabi asoslar bilan ajralib turadi. Uning fikricha, o’qitishning asosiy vazifasi “o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirish bilan birga ularning aqli, irodasi, his-tuyg’ularining rivojlanishi hamda ishonchli asosi sifatida tushuniladigan o’quvchilarning umumiy rivojlanishi”dir [4].

V. V. Davidov konsepsiyasiga ko’ra, rivojlantiruvchi ta’limning dastlabki vazifasi bolaning o’zini o’zi o’zgartirishga qiziqqan va bunga qodir bo’lgan ta’lim faoliyati sub’ekti sifatida shakllanishi uchun shart - sharoitlarni ta’minlashdan iborat. Eksperimental ma’lumotlarga ko’ra, bu muammoni bolaning maktab hayotining birinchi 4 yilida hal qilish mumkin [8].

Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyachilari (L. S. Vigotskiy, D. B. Elkonin, V. V. Davidov) fikriga ko’ra, “Rivojlantiruvchi ta’limning asosi uning mazmunidir” [7]. Mazkur qoidani aniqlashtirib, “boshlang’ich maktab yoshida yetakchi faoliyat sifatida o’quv faoliyatining rivojlanuvtiruvchi xususiyati uning mazmunini nazariy bilimlar tashkil etishi bilan bog’liq”, - deb ta’kidlaydi V. V. Davidov [8].

Tahlil va natijalar. Zamonaviy jamiyatda inson hayotining intensivligi shundaki, ta’lim tizimlari o’z ehtiyojlarini qondirish yo’llarini izlashga majbur. Ko’rinib turibdiki, jamiyat o’zining tabiati va ijtimoiy rivojlanishiga mos keladigan ta’lim tizimini yaratadi. Ijtimoiy hayotdagi qayta qurish jarayonlari ta’lim tizimidagi beqarorlikka, islohot loyihalari oldindan aytish qiyin bo’lgan natijalarga olib keladi. Shu bilan birga, ta’lim tizimini o’zini rivojlantirishning ichki dinamikasi mavjud bo’lib, u jamiyat ehtiyojlariga javob beradi va uning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Boshlang’ich maktablarning zamonaviy va innovatsion turlarining paydo bo’lishi, variativ dasturlarni taklif etish va

o'quvchining individualligini kuchaytirish, o'quv jarayoniga yangi tendensiyalarni joriy etish va innovatsion boshqarishni nazarda tutadi.

Xulosa. Bu borada pedagogika fanini rivojlantirishga qaratilgan yutuqlarni saqlagan holda shaxsning salohiyati, qobiliyatini rivojlantirish hayotiy zarurat ekanligini anglash zamonaviy rivojlantiruvchi ta'lim strategiyasini belgilashni talab etadi. Chunki bugungi strategiyalarimiz natijasida maktab o'quvchilarida bilim olishga intilishning pasayishi, o'qishga salbiy munosabat kuzatilayotganini ta'kidlash lozim. Buni boshlang'ich sinf o'quvchilarining ayrim xususiyatlari bilan izohlab bo'lmaydi, chunki bolalar tabiatan faol, tashabbuskor, zehqli, tuganmas ixtirochi va izlanuvchan. Shu sababli rivojlantiruvchi ta'limni variativ modellashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y. <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. Выготский Л. С. Мышление и реч. - Изд. 5, испр. – М.: Изд-во "Лабиринт" - 1999 – 352 с.
3. Давыдов В. В., Громько Ю. В. Образование как средство развития региональных общественных систем. Вопросы методологии. М., 1992. - 57 с.
4. Давыдов В. В. О теориях развивающего обучения. Уч.пособ. М., 1996. 69 с.
5. Дахин А.Н. Педагогическое моделирование. Монография. Новосибирск: Издательство НИПК и ППРО, 2005. – 230 с.
6. Jumayev M.E. O'quvchilarning ijodiy shaxs sifatida rivojlanishida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik-matematik tayyorgarlik. Monografiya.T.: "Fan", 2009. - 240 b.
7. Nurullayeva Sh.U. Zamonaviy o'qituvchi mahorati va ijodkorligi muammolari // Xalq ta'limi. №3. 2021 y. 6-9-b.
8. Коновалчук В. Н. Вариативное развивающее начальное образование. дис.пед.наук . Ростов-на-Дону – 2005. 419 с.
9. Калмыкова З. И. Психологические принципы развивающего обучения.